



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2025



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar





YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2025

2-JILD 4-SON



YANGI RENESSANS

**RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI**

**2 - JILD, 4 - SON
2025**



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



**“Tazkirat ush-shuaro”da latoyif****Madina Abruyeva**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 202-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Mashxura Xasanova**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqola O'rta Osiyo, ayniqsa, Xurosonda ilm-fan va madaniyat ravnaq topgan bir davrda yashab ijod qilgan Davlatshoh Samarqandiyning IX-XV asrlarni o'z ichiga qamrab olgan hamda ulkan ilmiy qimmatga ega bo'lgan “Tazkirat ush-shuaro” asarida qo'llangan latoyiflar haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: Davlatshoh, Tazkirat ush-shuaro, latoyif, hajv, Rashididdin Vatvot, qit'a, shoir, masnaviy, maishiy, latifa.

KIRISH. Davlatshoh(to'liq ismi Davlatshoh ibn Allouddavla Baxtishoh al-G'oziy as-Samarqandiy)ning qachon tug'ilganligi noma'lum. Lekin uning o'zi “Tazkirat ush-shuaro”ni 50 yoshga kirganda yoza boshlaganini aytadi. Ma'lumki, bu asar 892/1487 yili yozib tamomlangan. Albatta bu katta asarni yaratish uchun uning kam deganda ikki-uch yil vaqti ketgan. Shunday faraz qilganimizda, u taxminan 839-840/1436-1437 yillari tug'ilgan bo'lishi mumkin. Davlatshoh Shohrux va Husayn Boyqaro zamonida yashadi va ijod etdi. Olim haqida “Tazkirat ush-shuaro”da bayon etilgan ma'lumotlardan ko'rinishicha, u yirik harbiy xizmatchi va davlat arbobi oilasiga mansub bo'lgan. Uning otasi amir Baxtishoh Shohruxning yaqin kishilari va nufuzli amirlaridan bo'lgan. U umrining navqiron va nafli qismini sovut kiyib va qilich osib ot ustida o'tkazgan. Davlatshoh Samarqandiy bunday deb yozadi: “Men bandayi haqir yoshlik vaqtini, fazlu ilm kasb qilish ayyomini jaholat va batolatda o'tkazdim. Abadiy saodatning sarmoyasi bo'lgan ikki-uch kunlik hayotni behudalik bilan yo'q qildim. Bir vaqt, hisob-kitob yuzasidan, hayot ro'znomasiga nazar qilib ko'rdimki, qimmatli umrning karvoni pinhonlik dashtida ellik marhalani o'tibdir...” Davlatshoh umrining oxirlarida saroy xizmatini tark etib, mushkul, ammo zavqli ishga, ya'ni o'z zamonigacha yetib kelgan olimlar va shoirlar haqida kitob bitishga bel bog'laydi. Bu asar juda katta davr - qariyb besh yuz yil mobaynida yashab ijod etgan bir yuz ellik nafar shoir va adib faoliyatini tadqiq qabzasiga olgan. Davlatshoh Samarqandiy 60 yilga yaqin umr ko'rdi va “Mirot as-safo” muallifining so'zlariga qaraganda, 900/1495 yili vafot etgan.(2;6)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Latoyif (birlik. Latifa) 1. Latifalar, go'zal so'z va hikoyalar, ajoyib gaplar. 2. Tasavvufda qalb , ruh, sir, xafiy, axfo va sulton deb nomlanadigan hamda inson hislarining muayyan yerlaridan o'rin olgan ma'naviy borliq. (3;277)





Latifalar xalq og'zaki ijodining hajman kichik, nasrda yaratiladigan ommaviy janri hisoblanadi. Latifa atamasi arabcha "lutf" so'zidan olingan bo'lib, muloyimlik, yaxshi muomala, yaxshilik qilmoq, marhamat etmoq, sharaflamoq ma'nosini anglatadi. Ammo latifa janrining mohiyatida o'rta tashlangan ma'nosi kuchliroqdir. Latifalar asosan kichik maishiy mavzularga bag'ishlangan bo'ladi. Ular ko'pincha maishiy hayotdagi kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Ularda nutqning dialog ko'rinishi yetakchilik qiladi. Latifaning keng tarqalishi, zavqli kulgi qo'zg'atishi va xotirada mustahkam saqlanib qolishi janrning sodda kompozitsiyaga egaligi, badiiy shartlilikning kuchli amal qilishi, voqelikning zukko javob bilan hal bo'lishiga asoslangan. (4;28)

Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida "Men zukkoman" deguvchi shirin tilli to'ti va "Men so'zga chechanman", deguvchi xushovoz bulbul (Muhammad (s.a.v) payg'ambar) (ularga eng go'zal salovatlar va eng ulug' salomlar bo'lsin), mo'min hazilkash va shirinso'z, munofiq esa xo'mraygan va achchiq tilli bo'ladi, deb aytadi. Amir al-mo'minin Ali alayhissalomning o'zidan gavharlar sochuvchi hikmatlaridan birida shunday deyiladi: "Biror kishi badaxloqlik va badqovoqlik doirasidan chiqib ketishga sabab bo'ladigan darajada hazil-mutoyiba qilsa, buning yomon joyi yo'q" deya oliy Hazrat (Alisher Navoiy)ning hajvlaridan ayrimlarini keltiradi:

Bir kuni yuqori mansabli Amir murojaat qilib kelganlarning arzlari va shikoyatlarini tinglab o'tirganlarida, bir ayol kelib, devon xizmatchilari jumlasidan bo'lgan Sayyid Mironidan shikoyat qilib qoldi. Ul Hazratning buyrug'iga binoan Sayyid Mironni bu yerga chaqirib keldilar va o'sha zaifaning yoniga o'tirg'izdilar.

Amirlar va davlat ustunlari Sayyid Mironga har doim hazil-mutoyiba qilib yurishardi, buning ustiga o'sha ayol o'ta xunuk edi. Shundan kelib chiqib, amirlardan biri hazillashib:

-Bu ayol Sayyid Mironning ma'shuqasi bo'lsa ajab emas, - deb qoldi. Ul oliy hazrat bu gapni eshitib jilmaydilar. Sayyid Miron ul Hazratning kayfiyatlari yaxshi ekanligini ko'rgach, javobgarlikni o'z bo'ynidan soqit qilish uchun ba'zi so'zlarni aytishga kirishdi. Jumladan, Amir Sorbon Ali bizning aloqamizdan xabardorlar dedi. Ul Hazrat uning bu gapiga javoban quyidagi baytni o'qidi.

Bayt:

Oshiq bilan ma'shuq o'rtasida bir sir bo'lib,

Uni tuyaboqar bo'lgan kishi (ya'ni, sorbon) biladi.(7;123)

Yana bir mutoyibada oliy sha'nli Amirning tanishlaridan bo'lgan bir kampir bir tegirmon borasidagi da'vo yuzasidan tinimsiz devonga kelib-ketar va janjal qilardi. Ul hazrat unga nasihat qilib:





-Bunday ishlar uchun ering kelib-ketgani ma'qul, -dedilar.

U (kampir) bunga javoban:

-Tirikchiligimizning o'tishi ana shu tegirmonning tasarrufimizga o'tishiga bog'liq, shu sababdan men erim bilan birgalikda bu ishning orqasidan yuguramiz, -dedi.

Ul hazrat yana bir marta, ayollarning bunday ishlar ketidan yugurib yurishi munosib ish emas, dedilar-da, quyidagi baytni chiroyli so'zlar jaranglovchi tillariga keltirdilar.

Bayt:

Erkakning tez yurgani, ayolning esa sekin harakat qilgani yaxshidir. Agar (tegirmondagi) toshning har ikkalasi ham (baravariga) aylansa, un chiqmaydi, deya erkaklar bajarishi lozim bo'lgan ishni ayollar o'z gardaniga olishi nomunosib harakatlar qatoridan joy olishini ta'kidlagan.(7;123)

Xalq orasida "Latoyif ut-tavoyif" va "Latoyifuz-zaroyif" nomi bilan mashhur bo'lgan Faxriddin Ali Safiyning "Latofatnoma"sida ham "latoyif" so'ziga takrorlanmas izoh berilgan bo'lib, unda ta'kidlanishicha, "latoyif" so'zi garchi latifa mazmunini inkor etmasa-da, "latoyif" bu "latifa" emas. Latoyif - turli-tuman dilkash xarakterli, xullas, qimmatli voqea va hodisalarning dagi bayonidir. Shuning uchun ham bu hikoyatlarni latifa deb emas, balki latofatlar, lutflar deb atash mantiqqa yaqinroqdir. Chunki bu latoyiflarni o'qigan kishi xuddi latifa o'qigandek ham qah-qah solib kuladi, ham chuqur fikrga toladi, sidqidildan yum-yum yig'laydi ham. Safiyning latoyiflari orasida, garchi xalq latifalariga aylanib ketgan hikoyatlar uchrab tursa ham, bu asar eng avval chindan ham dog' qiluvchi latoyiflar majmuasi ekanligi quyidagi misollar orqali ko'rsatib berilgan:

Ochko'z

Bir kuni ikki mo'tabar kishi xurmo yer edilar. Ulardan biri yegan xurmosi danaklarini oldiga to'plar, ikkinchisi danaklarni sherigining oldiga tashlar edi. Xurmo tamom bo'lgandan keyin qarasalar, birining oldida bir uyum danak, ikkinchisining oldida esa hech narsa yo'q. Oldi bo'sh kishi mutoyiba yuzasidan sherigiga dedi:

-Ochko'z kishini xurmo yeganda sinasa bo'larkan. Qarang, shuncha xurmoni bitta o'zingizyebo qo'yibsiz-a! Sherigi darhol javob qaytardi:

-Ko'zi to'q kishilar xurmoning danagini ajratadilar. Ochko'zlar esa xurmoni ham, danagini ham tanovul qilaveradilar. Insof bilan ayting-chi, qay birimiz ochko'zroq ekanmiz?!(6;9)

Ikki uzun bir kalta





Bir kuni mo'tabar kishilardan biri o'zining ikki baland qomatli xizmatkorlarining o'rtasida borar edi. Xizmatkorlaridan biri mutoyiba yuzasidan dedi:

-Yo hazratim, siz bizning o'rtamisda "lano" so'zidagi "nun" harfiga o'xshaysiz.

-To'g'ri, -dedi mo'tabar zot, -biroq, agar o'rtangizda men bo'lmasam sizlar ham yo'q bo'lasizlar. Chunki, lano so'zida o'rtadagi "nun" tushib qolsa "lo" bo'ladi. Bu esa arabchasiga "yo'q" demakdir.(6;13)

Rostgo'y

Bir podshoh qabristondan o'tib ketayotgan edi, bir devonaga ko'zi tushdi. Uni chaqrib, dedi:

-Nechun ko'pga qo'shilmaysan?

-O'sha sen ko'p degan kishilar oxiri qayerga boradilar? - dedi devona.

-Go'ristonga, - dedi shoh.

-Demak, ko'p shu yerda ekan-da? Men doim ko'pning ichida yuraman.

-So'zlaring oqilona, - dedi shoh, - hech bir istaging bormi, bajarsam?

-Bor,- dedi devona,- biroz dumba yog'i bo'lsa degan edim.

Podshoh a'yonlariga bir bo'lak turp kesib berishni buyurdi. Devona turpni yeb, "uh-uh-uh", deb boshini tebratdi va dedi:

-Men to'g'ri xulosa chiqargan ekanman. Senki podsho bo'lding, yurtning holi xarob bo'lishini bilardim. Aytganim to'g'ri chiqdi. Sening podsholik davringda dumba yog'idan turpning tami keladi.(6;166)

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Tazkirat ush-shuaro"ning birinchi tabaqasiga kiritilgan Abu Najib Shahobiddin o'g'li Hamid ibn Am'aq Buxoriy qoraxoniylardan Xizraxon (1079–1080) saroyida malik ush-shuaro bo'lgan. U XI asrning 40–50-yillari orasida tug'ilib, Rizoqulixon Hidoyatning ma'lumotlariga qaraganda, 1147 (542 hijriy) yili, Tagi Koshiyning aytishicha esa 1158 (553 hijriy) yili vafot etgan. U fors-tojik klassik adabiyoti tarixida bahor go'zalligi, oshiq va ma'shuq latofati, muhabbat va uning beshafqatligi-yu taqdir bevafoqligini tarannum etgan qasidalar bilan mashhur. Am'aq qasidalarida iltizom uslubidan keng foydalangan. U ham ko'pgina saroy shoirlari singari umri oxirida qoraxoniylar saroyidan ketib, so'nggi hayotini go'shanishinlikda o'tkazgan. Sulton Sanjar zamonida yashab, "Yusuf" qissasini nazm etganki, uni ikki bahr bila o'qisa bo'ladi. Ustod Rashididdin Vatvot unga izdosh edi va uning aytganlarini "Hadoyiq us-sehr" ("Sehr bog'lari")da misol tariqasida tilga olib o'tgan. Uning o'g'li Hamid ibn Am'aq Hakim So'zaniyning zamonida yashagan va uni (So'zaniyni) hajv etgan. Ushbu qit'a Hamidnikidir:

Qit'a:

Tush ko'ribmen kecha Odam Atoni.





Qo'li Havvo qo'lini tutgan edi.

So'rdim: "Nabirangmu So'zaniy sening?"

"Uch taloq, Havvo agar, bo'lsa dedi.(1;34)

Yigirmata fozil kishining zikri keltirilgan ikkinchi tabaqadan joy olgan Hakim Ruhoniy Samarqandiyning hayotiga oid ma'lumotlarni topolmagani haqida yozadi olim. Davlatshoh Samarqandiyning quyida aytishicha, XII asrda o'tgan. Ismiga «hakim» so'zining qo'shib ishlatilishi, tabib va olim bo'lganligiga ishoratdir. Xushsuxan kishi va Rashididdin Vatvotning shogirdidir. Rashidiy (Rashididdin Vatvot - B. A.) Sayfiddin Isfarangiyning (ham) ustoz bo'lgan ekan. Aytishlaricha, Rashidiy mavlono Sayfiddin (Isfarangiy)ning yaqinlaridan bo'lgan. Bu gaplarning to'g'ri-noto'g'riligini roviylar bo'yniga. (Hakim) Ruhoniyning mana bu qit'asi kadxudo hajvi hamda qarzdorlik xususidadir:

Qit'a:

Qo'ymagay pok xulqli er olamda ikki ishga mayl,

Toki bundin yetmasin jon-u salomatlikka darz.

Bo'lsa ham Qaysar qizi, ul mayli yo'q xotunga hech,

To qiyomat va'dasi-la bo'lsa ham, olmaydi qarz.(1;56)

XIV asr oxiri va XIV asr 1-yarmida yashagan lirik shoir (1449-yili 80 yoshdan o'tib vafot etgan). Hayotiga oid ma'lumotlar kam. "Majolis un-nafois"dan uning haqida mana bularni o'qish mumkin: "Bobo Savdoyi Bovarddindir. Avval "Xovariy" taxallus qilur erdi. G'aybi olamdin anga jazaba ettikim, aqli zoyil bo'lib, eldin chiqib bosh-oyog' yalang devonalardek tog'-u dashtda kezar erdi. O'z holiga kelib el orasiga kirgandin so'ngra, "Savdoyi" taxallus qildi. Boysunqur Mirzo otig'a qasoyidi bor. G'azalni dag'i nav'i aytibdur. Bu matlai aningdurkim:

Xoling anbar, yuzing gul, miyig'ing rayhondur,

Og'zing g'uncha, tishlaring inju, labing marjon dur.

Umri seksondin o'tti va qabri Bovardning Sukkon otlig' kentidadir. Ikki g'arib o'g'ul Yodgor qo'yub bordi".

Bobo Savdoyi zamonida Abu Sa'id eshak qozi, xoja Jalol xachir tuman hokimi, Sadridin it dorug'a va Muhammad ho'kiz-kalla zakotchi edilar. Bobo Savdoyi bu ahvolga munosib, mana bu qit'ani aytgan:

Bor Abivardda tegirmon o'xshashi:

Charxi - g'ussayu novi - g'amdir beshak.

Zakotchisi - ho'kiz, hokimi - xachir,

Dorug'asi itu qozisi - eshak.

Ulardin ne bo'lur xalq nasibasi?

- Haqoratu tahqir, sitamu kaltak. (1;172)

XULOSA





Xulosa qiladigan bo'lsak, Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida keltirib o'tgan shoir va adiblar orasida barcha davrlarda bo'ladigan mansabparast, xalqni o'ylamaydigan, faqat o'zini nafsini qondirish yo'lida harakat qiluvchi shohlar, amaldorlar va yuqori tabaqa vakillarini qoralab qog'ozga tushirgan hamda kulgi ostiga olganlari ham borligining guvohi bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1981.
2. Davlatshoh Samarqandiy, B.Ahmedov O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti Toshkent, 1967.
3. Navoiy asarlari lug'ati [Matn]: lug'at / nashrga tayyorlovchi S.Rafiddinov. -Toshkent: "Akademnashr", 2023.
4. "O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi" ma'ruzalar matni, Nukus, 2011
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Latofatnoma: (Latoyif ut-tavoyif) / (Forschadan Hoja Sotimxon Hoja In'om Munavvar tarjimasi). – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
7. Makorim ul-axloq: tarixiy asar / Xondamir. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.

